

**"UNA MOLIYA" QK MCHJ MMT da**  
**JISMONIY SHAXSLARGA QARZ BERISHNING UMUMIY SHARTLARI**

1. UMUMIY QOIDALAR		
1.1.	<b>Tartibga solish predmeti</b>	Ushbu "UNA MOLIYA" MChJ MMT QK (keyingi o'rirlarda "Qarz beruvchi" deb ataladi) da jismoniy shaxslarga qarz berishning umumiy shartlari (keyingi o'rirlarda "Umumiy shartlar" deb ataladi) umumiy holatlarni, qarz oluvchi jismoniy shaxs tomonidan qarz berish va qaytarish tartibini, qarzdan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash va to'lash tartibini, shuningdek tomonlarning bu bilan bog'liq huquq va majburiyatlarini tartibga soladi.
1.2.	<b>Qarz shartnomasi</b>	Qarz shartnomasi ushbu umumiy shartlar va qarz shartnomasining yakka tartibdagi shartlaridan (bundan buyon matnda "Yakka tartibdagi shartlar" deb yuritiladi) iborat bo'ladi. shartnoma elektron imzo yordamida quyidagicha imzolanadi: ro'yxatdan o'tishda qarz oluvchi tomonidan ko'rsatilgan telefon raqamiga OTR kodi ko'rsatilgan SMS-xabar keladi, uni qarz oluvchi buyurtmani rasmiylashtirishda saytdagi maxsus maydonchaga kiritadi, bu qarz summasini olishga rozilik va qarz shartnomasining barcha shartlariga rozilik sifatida baholanadi.
1.3.	<b>Ta'riflar</b>	Umumiy shartlar va yakka tartibdagi shartlar maqsadlari uchun ushbu umumiy shartlarning 2-bo'limida ko'rsatilgan atamalar va ta'riflarning ma'nolari qo'llaniladi.
2. ATAMA VA TA'RIFLAR		
2.1.	<b>Annuitet to'lovi</b>	Asosiy qarz va pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlarni o'z ichiga olgan teng ulushlardagi qarz bo'yicha to'lov (Qarz).
2.2.	<b>Qarz beruvchi</b>	Qo'shma korxona, Ma'suliyati cheklangan jamiyat "UNA MOLIYA" mikromoliya tashkiloti, o'z faoliyatini 2024-yil "29" dekabrdagi 120-sonli hisob raqamiga asosan olib boruvchi. INN: 311431122, IFUT: 64990, Yuridik manzil: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Sharof Rashidov MFY, Amir Temur shoh ko'chasi, 4-uy
2.3.	<b>Qarz oluvchi</b>	Qarz beruvchi bilan qarz shartnomasini tuzgan jismoniy shaxs.
2.4.	<b>Qarz</b>	Qarz oluvchiga yuz million so'mdan ortiq bo'limgan miqdorda, to'lovililik, muddatililik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag'lari
2.5.	<b>Qarz shartnomasi</b>	Qarz beruvchi yuz million so'mdan ortiq bo'limgan miqdordagi pul mablag'larini beradigan, qarz

		oluvchi esa oladigan va bunday pul mablag'larini to'lovlар jadvalida belgilangan muddatlarda yoki muddatidan oldin qaytarish majburiyatini oladigan tomonlar o'rtaSIDagi kelishuv. qarz shartnomasini tuzish tartibi mazkur umumiy shartlarning 1.2-bandida nazarda tutilgan.
2.6.	<b>Asosiy qarz</b>	Qarz beruvchi tomonidan qarz oluvchiga taqdim etilgan, qaytarilmagan qarz summasi.
2.7.	<b>Ish kuni</b>	O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan nazarda tutilgan ish kuni. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan dam olish kunlari, shuningdek ishlanmaydigan boshqa kunlar, shu jumladan bayram kunlari ish kunlari hisoblanmaydi.
2.8.	<b>Qarzni qaytarish muddati</b>	Qarz oluvchi qarz shartnomasi bo'yicha qarzni so'ndirishga majbur bo'lgan kalendar sana/vaqt davri. qarzni qaytarish muddati qarz shartnomasining yakka tartibdagi shartlarida belgilanadi.
2.9.	<b>To'lov muddati</b>	Qarz oluvchi muayyan to'lov bo'yicha qarzni so'ndirishga majbur bo'lgan kalendar sana/vaqt davri. Yakka tartibdagi shartlarda belgilanadi.
2.10.	<b>Tomonlar</b>	Qarz beruvchi va qarz oluvchi
2.11.	<b>Qarz miqdori</b>	Qarzning yakka tartibdagi shartlarda ko'rsatiladigan qat'iy belgilangan miqdori.
2.12.	<b>Bank kartasi/ Hisob</b>	Qarz oluvchining O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisob raqamiga biriktirilgan bank kartasi, uning rekvizitlari qarz oluvchi tomonidan qarz beruvchining saytida buyurtmani rasmiylashtirishda taqdim etilgan.
2.13.	<b>Belgilangan foiz stavkasi</b>	Individual shartlarda ko'rsatilgan aniq raqamli qiymat bilan qayd etilgan stavka miqdori.

### **3. QARZ BERISH TARTIBI VA SHARTLARI**

3.1.	<b>Qarz berish</b>	Qarz oluvchi tomonidan muomala layoqati tasdiqlangan, qarz oluvchining shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga zarur roziligi mavjud bo'lgan va kreditlash tartib-taomilidan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda qarz qarz oluvchiga qarz shartnomasida belgilangan tartibda, miqdorda va shartlarda, qarz beruvchining sayti orqali qarz oluvchining arizasi asosida beriladi: <a href="https://unamoliya.uz/">https://unamoliya.uz/</a>
3.2.	<b>Qarz berish shartlari</b>	Qarz, qarz oluvchi tomonidan yakka tartibdagi shartlarning 6-bandida belgilangan talablar bajarilgan taqdirda beriladi.

3.3.	<b>Qarz berish tartibi</b>	Qarz, qarz oluvchining bank kartasiga qarz summasidagi naqd pulsiz mablag'larni o'tkazish yo'li bilan beriladi. qarz oluvchi sug'urta tashkiloti bilan sug'urta shartnomasini tuzish orqali qarz oluvchining hayotini ixtiyoriy ravishda sug'urta qilgan taqdirda, qarz oluvchining topshirig'iga asosan qarz beruvchi tomonidan sug'urta tashkilotiga qarz summasi hisobidan sug'urta mukofoti to'lanadi.
3.4.	<b>Qarz beriladigan sana</b>	Qarz oluvchining bank kartasiga pul mablag'lari o'tkazilgan sana qarz berilgan sana hisoblanadi.

#### **4 QARZDAN FOYDALANGANLIK UCHUN FOIZLAR**

4.1.	<b>Foizlarni hisoblash</b>	Qarzdan foydalanganlik uchun foizlar qarz berilgan sanadan boshlab (u 3.4-bandda belgilanganidek), qarz amalda qaytarilgan kunni ham qo'shgan holda, qarz bo'yicha amaldagi qarzdorlikka (har bir kun boshidagi qarzdorlik miqdoridan kelib chiqqan holda) qarzdan foydalanishning amaldagi kalender kunlari soni uchun yakka tartibdagi shartlarda nazarda tutilgan miqdorda hisoblanadi.
4.2.	<b>Foizlarni hisoblash bazasi</b>	Bir yildagi kalender kunlarning haqiqiy soni: mos ravishda 365 yoki 366.
4.3.	<b>Foiz turlari</b>	Qat'iy belgilangan foiz stavkasi
4.4.	<b>Foizlarni to'lash tartibi</b>	Qarzdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni to'lash qarz oluvchi tomonidan yakka tartibdagi shartlarning 8-bandida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshiriladi.
4.5.	<b>Foiz stavkasini o'zgartirish</b>	Foiz stavkasini o'zgartirish ko'zda tutilmagan.

#### **5. QARZNI TO'LASH TARTIBI**

5.1.	<b>Umumiy qoidalar</b>	Qarz shartnomasi doirasidagi barcha to'lovlar qarz oluvchining bank kartasidan pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda amalgaga oshiriladi.  Qarz oluvchi qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni to'liq va o'z vaqtida bajarish uchun yetarli hajmda va muddatlarda o'z hisobvaraqlarida pul mablag'lari bo'lishini ta'minlashi shart.
5.2.	<b>Qarzni so'ndirish sanasi</b>	Qarz beruvchining hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushgan sana qarzni qaytarish (qaytarish/qisman qaytarish), qarzdan foydalanganlik uchun foizlar, neustoyka (penya, jarima) va qarz shartnomasi bo'yicha har qanday boshqa to'lovlarini to'lash sanasi hisoblanadi.

5.3.	<b>Qarzni so'ndirish tartibi</b>	<p>Qarz oluvchidan kelib tushgan pul mablag'lari qarzni uzishga quyidagi tartibda yo'naltiriladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. mutanosib ravishda asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovları;</li> <li>2. joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;</li> <li>3. neustoyka (jarima, penya);</li> <li>4. Qarz beruvchining qarzni uzish bilan bog'liq boshqa xarajatlari.</li> </ol>
5.4.	<b>Majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik</b>	<p>Qarz oluvchi qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun, xususan, bajarish muddati o'tkazib yuborilgan taqdirda, yakka tartibdagi shartlarda nazarda tutilgan tartibda va miqdorda javobgar bo'ladi.</p> <p>Neustoykalar (jarimalar, penyalar) summalari qarz beruvchi tomonidan qarz oluvchi tomonidan o'tkazilgan pul mablag'lari haqiqatda olingan sanada qarz oluvchi tomonidan tan olingan deb hisoblanadi. Neustoyka muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun undirilgan taqdirda, neustoyka qarzni uzish majburiyati bajarilishi lozim bo'lgan sanadan keyingi sanadan e'tiboran va bunday muddati o'tkazib yuborilgan qarz uzil-kesil haqiqatda uzilgan sanaga qadar hisoblanadi. Neustoyka (penya) qarz oluvchi tomonidan tegishli muddati o'tkazib yuborilgan qarz uzil-kesil haqiqatda to'langan sanada to'lanadi. Muddati o'tgan asosiy qarz summasiga qarz beruvchi Yakka tartibdagi shartlarda ko'rsatilgan stavka bo'yicha foizlar hisoblaydi.</p>

## 6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 6.1. Qarz beruvchining majburiatlari

6.1.1.	<b>Qarz berish</b>	Qarz beruvchi qarz oluvchiga qarz shartnomasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda qarz beradi.
--------	--------------------	--

### 6.2. Qarz beruvchining huquqlari

6.2.1.	<b>Qarz berishni rad etish. Qarzni muddatidan oldin talab qilib olish.</b>	Qarz beruvchi o'z xohishiga ko'ra qarz berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. qarz berishni rad etish qarz beruvchi tomonidan o'z xohishiga ko'ra va sabablarini tushuntirmasdan amalga oshiriladi.
--------	--	---

		<p>Shuningdek, qarz beruvchi qarz oluvchini oldindan xabardor qilgan holda, yakka tartibdagi shartlarda nazarda tutilgan tartibda ilgari berilgan qarzni muddatidan oldin qaytarishni, ilgari berilgan qarzdan foydalanganlik uchun foizlarni va qarz shartnomasi bo'yicha qarz beruvchiga tegishli bo'lgan boshqa to'lovlarini muddatidan oldin to'lashni talab qilishga haqli:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Qarz summasi qarz shartnomasida belgilangan muddatlarda qarz oluvchi tomonidan qaytarilmasligidan yaqqol dalolat beruvchi holatlar yuzaga kelganda/mavjud bo'lganda.</li> <li>• Yakka tartibdagi shartlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.</li> </ul> <p>Qarz berishni rad etish to'g'risida qarz beruvchi qarz oluvchini bunday qaror qabul qilingan sanadan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida xabardor qiladi. Qarz beruvchi qarz shartnomasi bo'yicha o'z talab qilish huquqlarini qarz oluvchini oldindan xabardor qilmasdan uchinchi shaxslarga berishga haqli.</p>
6.2.2.		<p>Qarz beruvchining qarz shartnomasi bo'yicha o'z huquqlarini amalga oshirmsligi qarz beruvchining keyinchalik bunday huquqlarni amalga oshirishni rad etishi yoki bunday huquqlarni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi.</p>

### **6.3. Qarz oluvchining majburiyatları**

6.3.1.	<b>Qarzni qaytarish va foizlarni to'lash</b>	Qarz oluvchi olingan qarzni qarz beruvchiga qaytarishi, qarzdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni va boshqa to'lovlarini qarz shartnomasida belgilangan miqdorda, tartibda va muddatlarda, qarz beruvchi qarzni muddatidan oldin talab qilib olganda esa, qarz shartnomasida yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan hollarda, qarz oluvchi bunday muddatidan oldin talab qilib olish to'g'risida xabarnoma olgan kundan keyingi 3 (uch) kalender kundan kechiktirmay to'lashi shart.
6.3.2.	<b>Tekshirishni amalga oshirish uchun hujjatlarni taqdim etish</b>	Qarz oluvchi qarz beruvchiga qarz shartnomasida va Mikroqarz berishning umumiy qoidalari to'g'risidagi nizomda belgilangan hajmda, tartibda va muddatlarda axborot va hujjatlarni taqdim etishi, shuningdek qarz beruvchining qarz oluvchini lozim darajada tekshirishini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar va axborotni taqdim etishi hamda boshqa harakatlarni bajarishi shart.
6.3.3.	<b>Qarz oluvchining qarzni undirish bo'yicha xarajatlarini qoplash</b>	Qarz oluvchi qarz beruvchining tegishli yozma talabnomasini olgan sanadan boshlab 5 (besh) ish kuni mobaynida qarz oluvchidan qarz shartnomasi bo'yicha qarzdorlikni majburiy tartibda undirish

		bilan bog'liq hujjatlar bilan tasdiqlangan barcha xarajatlarini qoplashi shart.
<b>6.4. Qarz oluvchining huquqlari</b>		
6.4.1.	<b>Qarzni muddatidan oldin to'lash</b>	Qarz oluvchi qarzni qaytarish muddati tugagunga qadar qarzni muddatidan oldin (to'liq yoki qisman) to'lashga haqli.
6.4.2.	<b>Qarzdan qisman voz kechish</b>	Qarz oluvchi aloqa shakli vositalari orqali xabardor qilish va/yoki qarz beruvchining veb-saytida ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlaridan foydalangan holda o'z hisobvarag'iga pul mablag'larini olgunga qadar mikroqarzning foydalanilmagan summasidan voz kechishga haqli.
<b>7. BOSHQA SHARTLAR</b>		
7.1.	<b>Qarz shartnomasining kuchga kirishi</b>	Qarz shartnomasi ushbu Umumiy shartlarning 1.2-bandida nazarda tutilgan tartibda imzolangan sanadan boshlab kuchga kiradi.
7.2.	<b>Shartnoma shartlarini o'zgartirish</b>	<p>Qarz shartnomasi shartlarini o'zgartirish Tomonlarning kelishuviga ko'ra (shu jumladan, hujjatni elektron shaklda imzolash bilan cheklanmagan holda) amalga oshiriladi, Umumiy yoki Yakka tartibdagi shartlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.</p> <p>Tomonlarning kelishuviga ko'ra Qarz shartnomasi shartlari o'zgargan taqdirda, bunday kelishuvga Tomonlar quyidagi tartibda erishadilar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Qarz beruvchi Qarz oluvchiga Qarz beruvchining saytida o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish orqali shartnoma shartlarini o'zgartirish to'g'risida taklif yuboradi.</li> <li>- Qarz oluvchining Shartnoma shartlarini o'zgartirishga roziliqi (oferta aksepti) sukut saqlash bilan ifodalanadi va Qarz beruvchi tomonidan olingan deb hisoblanadi, agar Qarz oluvchi oferta olingan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida (aksept muddati) ushbu bandda belgilangan tartibda Qarz beruvchini akseptdan voz kechish to'g'risida yozma ravishda xabardor qilmasa, agar uzoqroq muddat Qarz beruvchining xabarnomasida ko'rsatilmagan bo'lsa;</li> <li>- Qarz oluvchining Shartnoma shartlarini o'zgartirishga rozi emasligi (akseptni rad etishi) faqat Qarz oluvchi tomonidan Qarz beruvchining veb-saytidagi shaxsiy kabinetiga yuborilgan yozma arizani rasmiylashtirish orqali bildirilishi mumkin.</li> </ul>

		Shartnama shartlaridagi o'zgarishlar aksept muddati tugagandan so'ng va Qarz oluvchi ofertani akseptlashdan bosh tortmagan taqdirda kuchga kiradi.
		<p>Qarz shartnomasi bo'yicha xabarnomalar va xabarlar tomonlar tomonidan yozma shaklda yuboriladi va agar ular tomonlar tomonidan yakka tartibdagi shartlarning 17 va 18-bandlarida ko'rsatilgan manzillarga bevosita ularni oluvchiga topshirish paytida yuborilgan bo'lsa, tegishli tarzda yetkazib berilgan deb hisoblanadi.</p> <p>Xabarlar almashinuvi tomonlar tomonidan quyidagilardan foydalanish orqali amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>● Kuryerlik aloqasi;</li> <li>● Pochta aloqasi;</li> <li>● Elektron pochta;</li> <li>● Qarz oluvchi tomonidan qarz beruvchining veb-saytida arizani rasmiylashtirishda ko'rsatilgan mobil telefon raqamlariga SMS-xabarlar;</li> <li>● Qarz beruvchining veb-saytidagi shaxsiy kabinetdagi elektron xabarlar.</li> </ul>
7.3	<b>Bildirishnomalar</b>	<p>Tomonlar O'zbekiston Respublikasining 29.09.2022-yildagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son Qonuniga muvofiq elektron shaklda tuzilgan va malakali elektron imzo bilan imzolangan hujjatlarni (bundan buyon matnda Elektron hujjat deb yuritiladi) almashishga haqli.</p> <p>Elektron hujjat shaklida taqdim etilishi talab qilinadigan yoki qarz shartnomasi shartlaridan kelib chiqadigan har qanday xabarlar va hujjatlar yuborilishi mumkin, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq elektron hujjat shaklida tuzilishi mumkin bo'lмаган xabarlar va hujjatlar bundan mustasno.</p> <p>Yakka tartibdagi shartlarning 18-bandida ko'rsatilgan manzilda yo'qligi sababli xabarnomani qabul qilib olinganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat bilan adresatga topshirish imkonini bo'lмаган taqdirda, xabarnoma tegishli tarzda topshirilgan hisoblanadi.</p>
7.4	<b>Kredit tarixi</b>	Qarz oluvchi Qarz beruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 4-oktyabrdagi O'RQ-301-son "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi qonuning 4-moddasida nazarda tutilgan qarz

		oluvchi to'g'risidagi kredit axborotini kredit byuolarining davlat ryestriga kiritilgan kredit byuolariga yuborilishi haqida xabardor qilingan va bunga o'z rozilagini beradi hamda bunday axborot yuborilishiga e'tiroz bildirmaydi.
<b>8.</b>	<b>MAXFIYLIK</b>	
8.1	<b>Maxfiylik shartlari</b>	Har bir tomon qarz shartnomasi tuzilganligi faktini va uning mazmunini, qarz shartnomasini bajarishga taalluqli har qanday axborotni va boshqa tomongan olingan maxfiy axborotni (u 8.2-kichik bandda belgilanganidek) oshkor qilmaslik majburiyatini oladi, 8.3-kichik bandda belgilangan istisnolar bundan mustasno, shuningdek maxfiy axborotdan faqat Shartnomani bajarish maqsadida foydalanish va uni himoya qilish uchun tegishli choralar ko'rish majburiyatini oladi.
8.2	<b>Maxfiy axborot</b>	Maxfiy axborot tarkibiga moddiy va elektron tashuvchilardagi har qanday hujjat va ma'lumotlar, shu jumladan yuboruvchi tomonidan "Maxfiy" belgisi tushirilgan, egasining to'liq ism-sharifi va joylashgan manzili ko'rsatilgan axborot
8.3	<b>Istisnolar</b>	Tomonlar o'z vakillik banklariga, professional maslahatchilarga va auditorlarga, agar ushbu shaxslarga ma'lumotlarning maxfiyligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qilgan bo'lsa, oshkor qilish huquqiga ega. Qarz beruvchi kredit shartnomasi bo'yicha har qanday huquq va/yoki majburiyatlarni, shu jumladan huquqlarni (da'volarni) boshqa shaxsga o'tkazish yo'li bilan, agar ular maxfiy ma'lumotlarga nisbatan maxfiylikni saqlash majburiyatini o'z zimmalariga olgan bo'lsalar, qarz beruvchi o'zlariga topshiradigan yoki o'tkazish niyatida bo'lgan har qanday shaxslarga oshkor qilish huquqiga ega.
8.4	<b>Maxfiylik muddati</b>	Ushbu bo'lim shartlari tomonlar uchun qarz shartnomasining amal qilish muddati davomida va u bekor qilinganidan keyin 3 (uch) yil davomida majburiy bo'lib, ularning buzilishi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq buzgan tomon uchun javobgarlikka sabab bo'ladi.